

## Yoshlarni bir manzilga jamlagan forum

Joriy yilning 15 oktyabr kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filialida "Saylov-2021: Kelajaging uchun ovoz ber" shiori ostida Yoshlar forumi bo'lib o'tdi. Unda viloyat oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, talaba-yoshlari hamda "Targ'ibot poyezdi" loyihasi doirasida Toshkent shahridan tashrif buyurgan targ'ibot guruhi a'zolari ishtirok etishdi. Forum avvalida so'z olganlar tomonidan saylov komissiyalari faoliyati, saylov qonunchiligi, siyosiy jarayonlarda yoshlarning faol ishtiroki xususida so'z bordi. Tadbir davomida targ'ibotchilar guruhi tomonidan qiziqarli savollar asosida turli viktorinalar, "Zakovat" intellektual o'yinlari hamda musiqiy chiqishlar namoyish etildi. Bahslarda oliy ta'lim muassasalari talabalaridan iborat jamoalar saylov qonunchiligi oid bilimlarini sinovdan o'tkazdilar.



Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filiali iqtidorli talabalari g'olib deb topildi. Forum davomida yangragan dilbar kuy-qo'shiqlar tadbirga o'zgacha fayz bag'ishladi. Ta'kidlash joizki, forumda Qarshi Davlat universiteti, Qarshi muhandislari-iqtisodiyot instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filiali talaba-yoshlari ham faol ishtirok etishdi.



**Matbuot xizmati rahbari Farrux Najimov axboroti**